



## NUTQIY JARAYONNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

**Maxmudova Nigoraxon Boyqo‘zi qizi**

**Namangan davlat universiteti 1-kurs doktoranti**

**e.mail: [mahmudovanigorahon143@gmail.com](mailto:mahmudovanigorahon143@gmail.com)**

## ФАКТОРЫ ФОРМИРУЮЩИЕ РЕЧЕВОЙ ПРОЦЕСС

**Махмудова Нигорахан Бойқўзи қизи**

**Наманганский государственный университет, докторант 1 курса**

**электронная почта: [mahmudovanigorahon143@gmail.com](mailto:mahmudovanigorahon143@gmail.com)**

## FACTORS SHAPING THE SPEECH PROCESS

**Makhmudova Nigorakhon Boyquzi qizi**

**Namangan State University, 1st year doctoral student**

**e.mail: [mahmudovanigorahon143@gmail.com](mailto:mahmudovanigorahon143@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Hozirgi ilm-fanda nutqiy jarayonning tashkil etilish masalasi ustivor ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqot ob‘ektlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, tilshunoslik sohasi o‘zining bugungi taraqqiyoti davrida inson omili hamda unga bog‘liq bo‘lgan ayrim hodisalar yani til, ong hamda nutq hodisalarining o‘ziga xos harakter kasb etayotganligi mazkur masalaning yanada chuqurroq mavqega ega bo‘lishini taminlamoqda. Chunki, doimo ilm yo‘lida, jamiyatda va xatto induvidual hayotda inson omili muhim ahamiyatga ega, zero u tilning va nutqning tom ma’nodagi egasi sanaladi. Tilning harakati nutq tomon yetaklaydi. Tushunarli nutq hosil bo‘lishida til avval ongga yani tafakkurga yuzlanadi. Kishi o‘z nutqida birinchi navbatda o‘zini o‘rab turgan olamni aks ettiradi. Bu esa olamning nutqiy tasviriga olib keladi. Inson o‘zini o‘rab turgan atrof-muhitni narsa va insonlarning tili, dini, madaniyati va xulq-atvoridan kelib chiqqan holda tasvirlaydi. Inson qabul qilgan yoki ko‘rib turgan ma’lumotni o‘ziga xos tarzda ongida yeg‘adi va ichki dunyosidan kelib chiqqan holda uni nutqiga chiqaradi. Kishilar atrofidagi hodisalar esa ma’lum belgi vazifasini bajarib, u insonda tilning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda, sekin

asta tilni onnga ehtiyoji seziladi, ong(tafakkur) esa nutq tomon harakatga keladi. Aynan bu kabi jarayonlar ushbu maqolada, birma-bir yoritib beriladi. Ayniqsa, til va nutqning ilm-fan olamidagi ahamiyati taniqli olim va faylasuflarimizning nazariy qarashlari tayangan holda yoritilib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** inson omili, til, tafakkur(ong), nutq, Nizomiddin Mahmudov, E.Benvenist, Ye.S.Kubryakova, Z.Xolmonova.

**Абстракт:** В современной науке вопрос организации речевого процесса считается одним из приоритетных объектов исследования. В частности, тот факт, что область языкознания в ходе своего современного развития приобретает своеобразный характер человеческого фактора и некоторых связанных с ним явлений, т. е. языка, сознания и речевых явлений, обеспечивает более глубокое положение этого вопроса. Потому что, человеческий фактор всегда важен на пути науки, общества и даже в жизни отдельного человека, ведь он считается буквальным хозяином языка и речи. Движение языка приводит к речи. При формировании доходчивой речи язык сначала обращается к разуму, то есть к мышлению. В своей речи человек прежде всего отражает окружающий мир. Это приводит к вербальному представлению Вселенной. Человек описывает окружающую его среду на основе языка, религии, культуры и поведения людей и вещей. Человек уникальным образом переваривает информацию, которую он получает или видит в своем уме, и выражает ее в своей речи, исходя из своего внутреннего мира. События, окружающие людей, выступают определенным символом, который обуславливает формирование языка у человека. В этот момент постепенно ощущается потребность в языке и сознание (мышление) переходит в сторону речи. Именно эти процессы будут рассмотрены один за другим в этой статье. В частности, подчеркивается значение языка и речи в мире науки на основе теоретических воззрений наших известных ученых и философов.

**Ключевые слова:** человеческий фактор, язык, мышление (сознание), речь, Низомиддин Махмудов, Э. Бенвенист, Е. Кубрякова, З. Холмонова.



**Abstract:** In modern science, the issue of the organization of the speech process is considered one of the research objects of priority importance. In particular, the fact that the field of linguistics, during its current development, acquires a special character due to the human factor and some phenomena related to it, that is, the phenomena of language, consciousness, and speech, ensures that this issue will have a deeper position. Because the human factor is always important in the path of science, in society and even in individual life, because he is considered the literal owner of language and speech. Movement of the tongue leads to speech. In the formation of intelligible speech, the language first turns to the mind, that is, to thinking. In his speech, a person reflects the world around him. This leads to a verbal representation of the universe. A person describes the environment that surrounds him based on the language, religion, culture and behavior of people and things. A person digests the information he receives or sees in his mind in a unique way and expresses it in his speech based on his inner world. The events surrounding people act as a certain symbol, which causes the formation of language in a person. At this point, the need for language is felt gradually, and consciousness (thinking) moves towards speech. It is these processes that will be covered one by one in this article. In particular, the importance of language and speech in the world of science is highlighted based on the theoretical views of our famous scientists and philosophers.

**Key words:** human factor, language, thinking(consciousness), speech, Nizomiddin Mahmudov, E.Benvenist, Ye.S.Kubryakova, Z.Kholmonova.

**Kirish:** Ilm-fan olamining bir qancha sohalarida, inson omili masalasi tadqiqot ob'ektining markazini tashkil etadi. Lingvopragmatika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarda inson omili birinchi o'rinda turadi. Ushbu sohalarning yuzaga kelishidan maqsad fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish va lisoniy faoliyatni kengroq yoritishdan iboratdir. Inson o'z faoliyat, holat va kechinmalarini til orqali ifodalab beradi. Yani kishilar hayotining turli sohasi va faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladigan munosabat tilda o'z aksini topadi. Yana ham tushunarli qilib



tariflaydigan bo'lsak, til kishilarning mehnat faoliyati jarayonida aloqa qilish, fikr almashishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida shakllanadi.

Til inson hayotida muhim ro'l o'ynaydigan hodisa. Kishining butun hayoti til bilan bog'liq. Til borasidagi ilmiy yondashuvlarga zamonamizning taniqli o'zbek tilshunosi N.Mahmudov o'zining “Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...” nomli maqolasida o'z qarashlarini ayrim olimlarning fikrlarini namoyon etgan holda shunday izohlaydi: “Til inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Olim mutaxassislar rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova takidlaganiday, inson aqlini, insonning o'ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi” degan ilmiy qarashlarni keltirib o'tgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Tilshunoslikda mohiyatan inson omili tilning tom ma'nodagi egasi sanaladi. Bu borada mulohaza yuritilar ekan, E.Benvenistning quyidagi so'zlarini yodga olish maqsadga muvofiqdir: “Tilning til maqomida bo'lishi har bir so'zlovchining subyektini taqazo etishi bilan uzviy aloqadordir ...Til shu darajada subyektivlik hodisasi bilan bog'liqki, hatto ayni paytda bundan boshqacha ham bo'lishi mumkinmi, degan savol ko'ndalang turadi. Albatta, boshqacha tarzda vazifa bajarishi va til deb atalishi mumkin emas edi” . Olimning ushbu fiklari o'rinli. Tilning til bo'lishi inson omili bilan uzviy bog'liq. Inson omili tilning tom ma'nodagi egasi bo'lgani boiz, tilda egosentrik xarakter shakllanadi. Egosentrik xarakter kishining “men” shakli shakllanishidir. E.Benvenist bu haqida ham o'z fikrini bildirgan: “Til shunday tuzilganki, o'zini “Men” sifatida taqdim etayotgan har bir so'zlovchi uni to'lig'icha o'z “mulki” sifatida his etadi” .

Albatta, til nutq tomon etaklaydi. Ular bir-biri bilan bog'lanmog'i uchun eng avvalo ong hamda bilish nazariyalariga etibor qaratilmog'i lozim. Zero, bu ikki munosabat mazmunli nutq shakllanishi uchun asos bo'lib keladi. Demak, til tafakkur(ong) bilan o'zaro bog'liq bo'lib, u fikrni moddiylashtiradigan, reallashtiradigan, kishilarning fikr almashishlarini taminlab beradigan quroldir. Til esa tafakkurning ya'ni ongning ifoda shakli, yashash formasi sifatida inson ongining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Til qobig'idan tashqarida ongning qaror topishi



mumkin emas. Abstrakt tafakkur faqatgina til tufayli voqega aylanadi. Tilning mavjudligi tafakkurning umumlashtiruvchi faoliyatining eng zaruriy sharti hisoblanadi.

Til bilan tafakkurning munosabati nihoyat darajada murakkab protsessdir. Inson o‘zini qurshab turgan olamni anglash jarayonida uning unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi. Bu obrazlar esa belgilar yordamida inson ongida shakllanadi. Shaxs ongida shakllangan fikr nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Bazi ma’lumotlarga qaraganda, bu ikki faoliyat, yani tafakkur va nutq faoliyati bir vaqtning o‘zida ham sodir bo‘lishi mumkin degan qarashlar ham mavjud. Xuddi shu yo‘sindagi fikrlarga oydinlik kiritish maqsadida taniqli tilshunos, olim Y.S.Kubryakova o‘z asarlarining birida: ”inson avval o‘ylab keyin gapiradimi yoki bu ikki faoliyat bir vaqtning o‘zida amalga oshadimi”, degan muammoni o‘rtaga tashladi. Olimaning nazariy qarashlariga ko‘ra, inson bazi holatlarda o‘z nutqini o‘ylab, keyin tuzatadi. Masalan, turli ilmiy ishlarda: maqola, tezis yozishlarda. Ayrim holatlarda esa fikrlash va so‘zlash jarayoni bir vaqtning o‘zida amalga oshadi. Masalan, suhbat chog‘ida. Shuningdek, Kubryakovaning takidlashicha, shery nutqlarning yaratilish jarayonlarida fikrlash va so‘zlash faoliyati bir vaqtning o‘zida amalga oshishi mumkin. Chunki, ko‘p hollarda she‘r misralari birdaniga shidat bilan qog‘ozga tushishi barchaga sir emas. Masalan, Usmon Nosirning “Tilim charchar, ajab, gohi Seni tarjima qilmoqdan” kabi satrlarini olaylik. Ushbu satrlarda tafakkur(ong) va nutq jarayoni bir vaqtning o‘zida amalga oshayotganligining isbotidir .

Inson borliqni til va ongning o‘zaro bir-biriga bog‘liqlik holida anglaydi. Kishilar borliqdagi obyektlarni anglab yetishda va bu ikki omilning bir-biriga aloqadorligida belgilarning ishtiroki nihoyatda kattadir. Belgilar sabab, ular bir-biriga chambarchas bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, “oq kabutar” va futbol uchrashuvidagi “qizil kartochka”ni misol tariqasida olaylik. Bizga malumki, “oq kabutar” tinchlik mannosini bildirib, ijobiy tomon aks ettiriladi, “qizil kartochka” esa fudbolda chetlatish maʼnosini anglatib, salbiy holatni ko‘rsatadi. Yoki bo‘lmasam, maktabdagi qo‘ng‘iroq ovozini olaylik, tanaffus vaqti qo‘ng‘iroq chalinsa dars boshlanganligini yoki dars jarayonida eshitilsa dars tuganligini yaʼni tanaffus vaqti

bo‘lganligini ifodalaydi. Bularning bari dastlab, ong ostida shakllanib, nimaning ishorasi ekanligi anglanib, so‘ng harakat tomon yuzlaniladi.

Tilning amalda qo‘llanishi nutqiy jarayonni tashkil qiladi va bu inson omili bilan uzviy bog‘liq holda belgilar ishtiroki asosida yuzaga keladi. Nutqiy jarayonni tashkil etish masalasi hozirgi tilshunoslikning eng muhim ahamiyatga ega tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Tilning ifoda imkoniyatlari nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. Buyuk mutaffakirimiz Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida til va nutq munosabatlarini shunday tarif keltiradi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning ofatidir» .

Til va nutq o‘zaro bir-biriga aloqador hodisalar sifatida e’tirof etilar ekan, aytish joizki, til ijtimoiy, nutq esa xususiy hodisadir. Tilning butun imkonioyatlari nutqda ifodalanadi. Taniqli o‘zbek tilshunoslaridan biri bo‘lmish Z.Xolmonovanning oliy o‘quv yurti, litsey, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Tilshunoslikka kirish” nomli qo‘llanmasida til va nutqning bir qancha o‘ziga xos asosiy jihatlari keltirib o‘tilgan. Ular quyidagilarni tashkil qiladi: a) til-munosabat asosi; nutq esa munosabat ifodasidir; b) til jamiyatda shakllanadi; nutq har bir shaxsning faoliyatida namoyon bo‘ladi; c) tilning mavjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan boliq; nutqning mavjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud; d) bir shaxs ayni zamonda bir necha tilga ega bo‘la oladi; shaxsning nutqi esa faqat bitta bo‘ladi, negaki nutq ma’lum vaqtda va ma’lum makonda yuz beradi; e) tilning hajmi noaniq, chegaralanmagan; nutqning hajmi aniq: u dialog, monolog, ayrim matn, kitob ifodalari bo‘ladi; f) til qat’iy, turun hodisa; nutq o‘zgaruvchan harakatdagi hodisadir. Bular til va nutqning o‘ziga xos va mos hislatlari sanaladi.

## XULOSA

Xulosa qaladigan bo‘lsak, inson omili til bilan uzviy bog‘liq. Jamiyatda shaxs borki tilga ehtiyoji bo‘ladi. Til esa tafakkurni talab etadi. Tafakkur bor joyda mazmunli

nutq shakllanadi. Bu jarayonlarning yaralishida belgilar ishtiroki muhimdir. Insonni tilga ehtiyoji, tilni esa nutq tomon etaklanishida ongga muhtojligiga belgilarning ishtiroki sabab. Aynan belgilar bu uch jarayonni kelib chiqishiga sababchidir. Tilshunoslik olamida til haqida tarif-u tavsiflar juda ko‘p. Til va nutq borasidaga qarashlar cheksiz. Ushbu maqolada til, tafakkur va nutq haqida ayrim tilshunos olimlarning nazariy hamda ilmiy fikrlari ilm-fan olamida o‘chmas iz qoldirdi. Xususan, buyuk ajdotlarimizdan Alisher Navoiy, Usmon Nosir, XX asrlarda yashab ijod etgan tilshunos olimlar Ye.S.Kubryakova, shuningdek, XXI asrning zamonaviy nomoyondalari bo‘lmish N.Mahmudov, E.Benvenist hamda Xolmonovalarning insondagi bu uch hodisa borasidagi ilmiy qarashlari keltirib o‘tildi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. -№ 5. – B. 6-7.
2. Benvenist E. Общая лингвистика. – М., 2002. – С. 295.
3. Kubryakova Ye.S. Номинативный аспект речевой деятельности. – М., 1986.
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 13.
5. Xolmonova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. 37– bet.